

TA'LIMDAGI INNOVATSION YANGILIKLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Habibullayeva Muxlisaxon Yorqinjon qizi

*Namangan davlat pedagogika inistituti Pedagogika
nazariyasi va tarix yo'nalishi 1- kurs magistranti.*

muxlisahabiullayeva42@gmail.com

+998939142106

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davrning zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan yangi innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va pedagogik metodlar tahlil qilingan. Maqolada ta'lim jarayonida yangi va zamonaviy innovatsiyalarning ta'lim sifatiga ta'siri, ularni joriy etishdagi yuzaga keladigan amaliy muammolar hamda kelajakda ushbu tizimning muvaffaqiyatlari har tomonlama ko'rib chiqilgan. Ushbu maqolada xalqaro tajribalar misol qilib keltirilgan va o'zimizning milliy ta'lim sharoitiga moslashtirish yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Zamoaviy ta'lim, innovatsion g'oyalar, interaktiv metodlar, raqamli dasturlar, masofaviy platformalar, ta'lim resurslari, pedagogik metodlar, sun'iy intellekt.

ИННОВАЦИОННЫЕ РАЗВИТИЯ В ОБРАЗОВАНИИ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация: В статье анализируются новые инновационные идеи, технологии и педагогические методы, используемые в современном образовательном процессе. В статье всесторонне рассматривается влияние новых и современных инноваций в образовательном процессе на качество образования, проблемы, связанные с их внедрением. В качестве примеров приводится зарубежный опыт в данной области и предлагаются пути его адаптации к отечественным условиям.

Ключевые слова: Современное образование, инновационные идеи, интерактивные методы, цифровые программы, дистанционные платформы, образовательные ресурсы, педагогические методы, искусственный интеллект.

INNOVATIVE DEVELOPMENTS IN EDUCATION AND THEIR EFFECTIVENESS

Abstract: In this article was analyzed new innovative ideas, technologies and pedagogical methods used in the modern educational process of the present time. The article comprehensively examines the impact of new and modern innovations in the educational process on the quality of education, the problems associated with their implementation. International experiences in the field are used as examples and ways to adapt them to our national conditions are proposed.

Keywords: *Modern education, innovative ideas, interactive methods, digital programs, distance platforms, educational resources, pedagogical methods, artificial intelligence.*

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, bugungi zamonaviy hayotimizda XXI asr axborot va texnologiya inqilobi davri hisoblanadi. Yillar o'tgani sayin ta'lim tizimimizda ham bu o'zgarishlarga moslashish zaruriyatini sezilarli darajada ortib borayotgani ahamiyatga molik. Bilamizki, innovatsiyalar – nafaqat texnologik yechimlar, balki biz pedagoglar uchun ham dars berishdagi yondashuvlarning yangilanishini, ta'lim mazmunini ifodalovchi yanada keng doiradagi ilmiy va zamonaviy tushunchalarning paydo bo'lishini va ta'lim jarayonida kompetensiyalarga yo'naltirilgan metodlarni tatbiq etishni anglatadi. Bu maqolada zamonaviy innovatsion yondashuvlarning turlari, ularning samaradorligini oshirish mexanizmlari hamda ularni amalga oshirishdagi yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilinadi.

Ta'limdagi innovatsion texnologiyalarning bir ko'rinishi bu - "Raqamli ta'lim va masofaviy platformalar". Ayni hozirgi davrda ushbu tizimdan barcha sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham keng foydalanilmoqda. Raqamli platformalar ta'limda resurslarni markazlashtirish, yagona bir tizimda ish olib borishni yaratish va ta'lim monitoringini avtomatlashtirish imkonini beradi. Masofaviy ta'limning afzalligi – unda hech bir geografik hududlarning ahamiyati yo'qligi va barcha ilm oluvchilar uchun moslashtirilgan o'qish rejimi bilan ta'minlashidir. Bundan tashqari barcha uchun eng kerakli manbaaga aylanib ulgurgan" Sun'iy intellekt va adaptiv ta'lim tizimlari". Ushbu dastur sizga istalgan va kerakli resurslarni izlashingizga ko'mak beradi. Shu bilan birga ushbu zamonaviy innovatsiya o'qish samaradorligini oshirishda sizga mustaqil izlanish uchun yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Biz pedagoglar uchun interaktiv va faol o'qitish usullari juda ham zarur. Darsimizni yanada qiziqarli hamda, tushunarli bo'lishi uchun quyidagi metodlardan mumtazam foydalanib borish lozim. Ular- debat, klaster, akvarium, loyiha asosida o'qitish kabi metodlar talabalarni muammolarni hal qilishga yo'naltiradi, keng

ko'lamdagi axborot almashinuv jarayoni yuzaga keltiradi va amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion ta'limning samaradorligini oshirishdagi turli tadqiqotlar va meta-tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida raqamli va interaktiv metodlar talabalarning bilimni va faoliyatini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, ta'lim samaradorligini baholash uchun yangi mezonlar faoliyat yurita boshladi. Bunga yaqqol misol sifatida "Hemis" dasturi namuna bo'la oladi. Ushbu raqamli tizim ta'lim oluvchi shaxsning barcha faoliyatini ya'ni uning darsdagi davomatidan boshlab, o'quv jarayonidagi bilimni o'zlashtirish foizi, amaliy ko'nikmalarni bajarish sifati, talaba motivatsiyasi va uzoq muddatli ta'lim natijalari hisobga olinadi. Hozirgi kunga kelib innovatsion usullar ko'pincha bu mezonlar bo'yicha an'anaviy yondashuvdan ko'ra yuqoriroq natijalar beradi.

Ammo tanganing ikkinchi tarafi ham bor. Ushbu tizimda ham muammolar yuzaga keladi. Misol uchun ko'plab ta'lim muassasalarida yetarli kompyuter va internet resurslari yo'qligi innovatsiyalarni joriy etishda asosiy to'siq hisoblanadi. Bu muammoni hal etish uchun hududlarda davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish zarur. Shu bilan birga barcha pedagoglarning IT sohasidagi bilim va malakalarini oshirish galdagi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Yangi ta'lim tizimidagi metodlar va texnologiyalarni samarali qo'llash uchun pedagoglarga yo'naltirilgan rejali hamda tizimli mashg'ulotlar va sertifikatlash tizimi joriy etilishi lozim. Mamlakatimizda ta'lim siyosati uzoq hamda muddatli rejalashtirish asosida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashi, moliya manbalarini diversifikatsiyalashi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'limdagi innovatsion yangiliklar va g'oyalar — zamonaviy jamiyat talablariga to'g'ri keluvchi talab qilinayotgan muhim islohotlardan biridir. Raqamli platformalar, sun'iy intellekt, pedagogik yangiliklar va ularni tizimga olib kirayotgan yangi metodlari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ammo ularni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun o'quv muassasalari texnik jihozlanishi, pedagoglarning o'z sohalari hamda zamon talab etayotgan "IT" sohasida ham malaka oshirilishini va barqaror siyosiy-iqtisodiy yondashuvlarni talab etiladi. Biz bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich integratsiyalar,

nufuzli oliygohlar hamda ta'lim muassasalari bilan o'rnatilayotgan xalqaro hamkorliklar va o'quv jarayonidagi yangi metod va izlanishlar bilan kirib kelmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.To'xtaboyev Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi farmon va qarorlari.
3. Hattie, Visible Learning for Teachers. – 2012. (ta'lim samaradorligi bo'yicha meta-tadqiqotlar)